MAXSARNING MILYUTINSKIY-114 NAVINI ETISHTIRISHNING AHAMIYATI

S.G'.Qadamova mustaqil tadqikotchi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, *Urganch*

I.I.Abitov, PhD dotsenti ilmiy rahbar

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, *Navoiy*

Annotatsiya. *Maqolada, Xorazm viloyating o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida Milyutinskiy-114 navini haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В статье представлены сведения о сорте Милютинский-114 в условиях среднезасоленных почв Хорезмской области.*

Annotation. *The article presents information on the Milyutinskiy-114 variety under the conditions of moderately saline soils in the Khorezm region.*

Har bir qishloq xo'jaligi ekini kabi, maxsar ham biologik xususiyatlarini hisobga olishni va uni yetishtirish texnologiyasi elementlariga rioya qilishni talab etadi. Biroq, ushbu ekinni yetishtirish texnologiyasi to'g'risida asosli ma'lumotlar hali yetarli emas [1].

Qo'llaniladigan o'g'itlar dozasiga qarab maxsar urug'i moyining sifati. Tajriba 2013-2015 yillarda Uralortida o'tkazildi. Qo'llanilgan o'g'itlar dozasi: N_{40}, $N_{40}P_{40}$, $N_{40}P_{40}K_{40}$. Tajriba o'tkazish jarayonida aniqlanishicha, o'g'itlar dozasi oshirilishi bilan maxsar urug'larining qobiqlik darajasi biroz kamayib, 75,6% ni tashkil etdi, moyliligi esa, aksincha, doza oshishi bilan 15,1% gacha ko'paydi [2].

Olimlar tomonidan maxsar ekinida oqova suvlarining loyqa cho'kmalari ko'rinishidagi organik o'g'itlar sinab ko'rildi. Hosildorlik uchun ushbu organik o'g'it – meliorantni 10 t/ga miqdorida solish zarur, degan xulosaga kelindi, bu esa rentabellikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. [3].

Maxsar erta — avgust oyining o'rtalarida, qulay ob-havo sharoitida yig'ib

olinganligi sababli ajoyib o‘tmishdosh ekin hisoblanadi, chunki o‘rim-yig‘imdan so‘ng boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun tuproqni yaxshilab tayyorlashga vaqt qoladi. Olimlarning ta’kidlashicha, maxsar tuproq strukturasini shakllantiradi va yaxshilaydi, unga ijobiy meliorativ xususiyatlar baxsh etadi [4].

Maxsarning urug‘larida och sariq rangli, yarim quriydigan moy mavjud bo‘lib, u ozuqaviy qiymati bo‘yicha kungaboqar moyidan qolishmaydi. Maxsar moyi ta’mi jihatidan ham kungaboqar moyidan ustun turadi. Maxsar moyining yog‘ kislotalari tarkibi 90% gacha bo‘lgan linol kislotasini o‘z ichiga oladi. Bu juda muhim ahamiyatga ega, chunki u inson organizmida ishlab chiqarilmaydi va uni oziq-ovqat mahsulotlari orqali iste’mol qilish kerak. Buning eng yaxshi manbai maxsar moyidir [5].

Ilmiy tadqiqotlar 2025 yilda Xorazm viloyating Urganch tumanida joylashgan “Jumanzar Boynazar” fermer xo‘jaligida tajriba qo‘yiladi. Asosiy ekinda maxsarning Milyutinskiy-114 navi ekildi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitlarida olib borilib, bunda dala tajribalarni joylashtirish, hisoblash va kuzatuvlar “Dala tajribalarni o‘rganish uslublari” (2007), «Методика Государственного сорта испытания селскохозяйственных культур» (1985) uslubiy qo‘llanmalari asosida olib borilgan. Olingan natijalarning statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» (1985) uslubiy qo‘llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari. Tajriba dalasidan amal davri boshida agrokimyoviy tahlil uchun konvert usulida besh nuqtadan tuproq namunalari olinib laboratoriya sharoitida tahlil qilinadi va tuproqning kimyoviy unsurlar bilan ta’minlanganlik daraja aniqlandi. Dala tajribalari asosiy ekin sifatida ekilib jami maydoni 0,5 gektarni tashkil etadi. Bunda maxsarning Milyutinskiy-114 navida nazariy ko‘chat qalinligi Tor qatorlab ekish qator orasi -15 sm, 300,350 va 400 ming. dona./ga va keng qatorlab, ekish qator orasi -60 sm 200, 250, 300 ming. dona./ga qilib ekildi.

Xulosalar

Xorazm viloyating o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida asosiy ekin sifatida yetishtirilayotgan maxsar navini ekishda maqbul ekish usuli va me’yorlari hisobiga o‘sishi va rivojlanishi faollashdi.

Adabiyotlar

1. Бойко, К.Я., Минковский, А.Е., Поляков, А.И. Влияние примов агротехніки выращивания на урожайность сафлора в условиях юга Степи Украины // Актуальні проблеми сучасного землеробства : Доповіді і виступи на між нар. наук.-практ. конф. – Луганськ, 2003. – С. 63-66.
2. Иванюшин, Е.А. Андриюк А.В. Качество маслосемян сафлора в зависимости от сроков, норм, способов посева и дох вносимых удобрений в Зауралье // Инноватsионные пути в разработке ресурсосберегающих технологий хранения и переработки сельскохозяйственной продукции, 2017. - С. 73 – 77.
3. Межевова, А.С. Использование илового осадка сточных вод при возделывании сафлора красильного на светло-каштановых почвах Волгоградской области // Юг России: экология, развитие. –2020. - №3(56). – С. 43-52.
4. Нарушева, Е.А., Боженик Е.В. Эффективность расчетных доз азотных удобрений и регуляторов роста при выращивании сафлора// Евразийский Союз Ученых. – 2015. №1-1(18). – С. 73–74.
5. Турина ЕЛ. (2020). Значение сафлора красильною *(Cart ham us tinctorius* L.) и обоснование актуальности исследований с ним в Центральной степи Крыма (Обзор). Таврический вестник аграрной науки. *1(21).* 100-121.